

Ro'yxat raqami: 3

Bank aksiyadorlari navbatdan tashqari
Umumiy yig'ilishining
2023-yil "28" sentabrdagi
54-sonli qarori bilan

"TASDIQLANGAN"

Umumiy yig'ilish raisi

U.M.Oxunjonov



"Biznesni rivojlantirish banki" ATB
boshqaruvi to'g'risida nizom

ATB "Biznesni rivojlantirish banki"

YURIDIK DEPARTAMENTI

Toshkent – 2023-yil

"BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI" ATB

ICHKI ME'YORIY HUJJAT

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB boshqaruvi to‘g‘risida nizom

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari, boshqa qonun hujjatlari hamda “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (keyingi o‘rinlarda – bank) ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan va ijro etuvchi organ bank boshqaruvi maqomini va vakolatlar doirasini, uning ishini, a‘zolarini tayinlash tartibini belgilaydi.

2-bob. Bank boshqaruvi va uni shakllantirish tartibi

2. Bank boshqaruvi bankni boshqarishning ijro etuvchi organi bo‘lib, u bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi hamda bankning faoliyati uchun javobgarlikni to‘liq zimmasiga oladi.

3. Bank boshqaruvi bank aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishiga va kuzatuv kengashiga hisobdordir va ushbu organlar qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

4. Bank boshqaruvi bank ustavi va mazkur Nizom asosida ish yuritadi.

5. Bank boshqaruvi kollegial organ bo‘lib, 9 nafar a‘zodan iborat.

6. Mazkur organga bank boshqaruvi raisi rahbarlik qiladi. Boshqaruv raisi malakali mutaxassislar, shu jumladan xorijiy ekspertlar ishtirok etadigan tanlov asosida tanlab olinadi hamda aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi.

7. Qolgan boshqaruv a‘zolari Markaziy bank bilan kelishilgan holda bank boshqaruvi raisi taqdimnomasi asosida bank kuzatuv kengashi qarori bilan tayinlanadi.

8. Bank kuzatuv kengashining boshqaruv a‘zolarini tayinlash to‘g‘risidagi qarori aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tasdig‘iga kiritiladi.

9. Bank boshqaruvi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining va bank kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

3-bob. Bank Boshqaruvini tuzish tartibi

10. Bank boshqaruvi tarkibiga:

a) bank boshqaruvi raisi, uning o‘rinbosarlari, bosh buxgalter, departament va boshqarmalarning boshliqlari;

b) bank faoliyatining muhim yo‘nalishlarini ta‘minlovchi boshqa mutaxassislar kiritilishi mumkin.

11. Bank boshqaruvi a‘zoligiga nomzodlar ko‘rib chiqilganda va tayinlanganda qaror oddiy ko‘pchilik ovoz berish yo‘li bilan bank kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

12. Bank boshqaruvi a'zoliciga nomzod o'zining ma'muriy va jinoiy hamda boshqa javobgarlikka tortilganligi yoki tortilmaganligi to'g'risida bank Kuzatuv kengashi a'zolariga ma'lum qilishga majbur.

13. Bank boshqaruvi bank kuzatuv kengashiga boshqaruv a'zoliciga u yoki bu nomzodni tavsiya etishda mehnat shartnomasi tuzish shartlari va nomzodning shaxsiy arizasi asosida mehnat shartnomasi tuzish bo'yicha nomzodning roziligi to'g'risida axborot beradi.

14. Bank boshqaruvi a'zoliciga nomzodlar o'zlarining nomzodlari ko'rib chiqilayotganda aksiyadorlar umumiy yig'ilishida yoki bank kuzatuv kengashi majlisida qatnashishlari mumkin.

15. Bank boshqaruvi tarkibiga tavsiya etilgan nomzodlar bank kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullangandan keyin boshqaruv a'zoliciga har bir nomzod bilan tegishli lavozimlar bo'yicha vazifalarni ijro etishga mehnat shartnomasi tuziladi. Bunda, bank boshqaruvi raisi mehnat shartnomasini bank kuzatuv kengashi raisi bilan tuzadi, boshqaruvning qolgan a'zolari bilan mehnat shartnomasini bank kuzatuv kengashi bilan kelishilgan shartlar asosida bank boshqaruvi raisi imzolaydi.

16. Bank boshqaruvi raisi boshqaruvda bo'sh lavozim bo'yicha bank kuzatuv kengashining kelgusi majlisigacha bo'lgan muddatda vaqtincha vazifalarni bajarish uchun bankning birorta rahbar xodimini qo'yish huquqiga ega.

17. Bank boshqaruvi a'zosi bank ustavini, shuningdek mehnat shartnomasi shartlarini buzganligi uchun bir vaqtning o'zida mehnat shartnomasi bekor qilingan holda egallab turgan lavozimidan chaqirib olinishi mumkin. Boshqaruv a'zosini chaqirib olish va u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi qaror ko'pchilik ovoz bilan bank kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

18. Bank boshqaruvining son tarkibi uning har bir a'zosi tomonidan bank faoliyatini samarali boshqarish maqsadida ko'paytirilishi yoki bir-birini takrorlaydigan yo'nalishlar bo'yicha qisqartirilishi mumkin.

4-bob. Bank boshqaruvi a'zolariga va a'zoliciga ko'rsatilayotgan nomzodlarga qo'yilgan talablar

19. Bank boshqaruvining a'zolari benuqson ishchanlik obro'siga, bank tavakkalchiliklarining samarali boshqarilishini, o'z vakolatlari doirasida asosli qarorlar qabul qilinishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tajribaga, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

20. Bank boshqaruvi a'zolari banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga doimo muvofiq bo'lishi shart.

21. Bank boshqaruvi a'zoliciga ko'rsatilayotgan nomzodlar ularning lavozimga kirishishidan oldin Markaziy bank bilan kelishib olinadi.

22. Bank boshqaruvi a'zolari ish beruvchining roziligi bilan boshqa tashkilotlarda o'rindoshlik asosida ishlashi mumkin, bundan ularning boshqa banklar

va tashkilotlarda ishga joylashuvi manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar mustasno.

23. Bank boshqaruvining a'zolarini baholash shartlari, baholash uchun zarur hujjatlar, malaka talablariga muvofiqlik mezonlari, shuningdek ularni kelishib olish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

5-bob. Bank boshqaruvining vakolatlari

24. Bankning joriy faoliyatiga rahbarlik qilishning barcha masalalari bank boshqaruvi vakolatiga kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki bank kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

25. Bank boshqaruvi raisi bank faoliyatining barcha masalalarini mustaqil ravishda hal qiladi, umumiy yig'ilish va bank kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasnodir.

26. Bank boshqaruvi a'zolari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, bank kuzatuv kengashi, bank boshqaruvi qarorlari va boshqaruv raisining topshiriqlari hamda lavozim yo'riqnomasida belgilangan xizmat vazifalari va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlari doirasida ish olib boradi.

27. Bank boshqaruvi bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshirish doirasida quyidagi vakolatlarga ega:

bank markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari rahbarlari va filiallari rahbarlarining bank faoliyatining aniq yo'nalishlari bo'yicha tegishli davrlar va ishlar uchun faoliyat yakunlari to'g'risidagi, shuningdek ular faoliyatini taftish qilish va tekshirish natijalari bo'yicha hisobotlarini ko'rib chiqadi;

bank bo'linmalari ish amaliyotiga eng ilg'or bank texnologiyalari, bank ishlarini kompleks avtomatlashtirish loyihalari joriy etilishini tashkil etadi, zamonaviy bank infratuzilmasi yaratilishini ta'minlaydi;

bankning filiallari va boshqa alohida bo'linmalari tarmog'ini takomillashtirish bo'yicha ishlarni belgilangan tartibda tashkil etadi va amalga oshiradi;

bank mijozlariga bank xizmatlari ko'rsatishning umumiy shartlari, vositachilik haqi, tariflar va bank xizmatlari ko'rsatganlik uchun foiz stavkalari miqdorini belgilaydi;

zararlar miqdorini kamaytirish maqsadida bank aktivlarining diversifikatsiyalanishini amalga oshiradi;

bank tomonidan Markaziy bank belgilagan prudensial nazorat talablariga, Markaziy bankda majburiy zaxiralarni shakllantirish yuzasidan talablarga rioya qilinishini ta'minlaydi;

bankning kapitali va likvidli resurslari yetarli darajada bo'lishini, shubhali va bekor turgan aktivlarga qarshi ularni klassifikatsiya qilish asosida zaxiralar yaratilishini ta'minlaydi;

qonunchilikda belgilangan tartibga va xalqaro standartlarga muvofiq bank

ATB "Biznesni rivojlantirish banki"

YURIDIK DEPARTAMENTI

"BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI" ATB

ICHKI ME'YORIY HUJJAT

buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishini tashkil etadi;

kadrlar tarkibi tayyorlanishini va qayta tayyorlanishini ta'minlaydi, eng o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish, shuningdek zaruriyat bo'lganda, xodimlarga nisbatan intizomiy jazolar qo'llash va ulardan intizomiy jazolarni olib tashlash to'g'risida qaror qabul qiladi;

bank kuzatuv kengashining boshqaruv vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qarorlarining bajarilishini ta'minlaydi;

bank kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning birinchi talabi bo'yicha moliyaviy hisobotni va bank faoliyati to'g'risidagi boshqa ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etadi;

bank kuzatuv kengashi oldida bank faoliyatining moliyaviy natijalari uchun belgilangan tartibda hisobot beradi;

bank kuzatuv kengashida ko'rib chiqish uchun bankni rivojlantirish strategiyasi, bankning tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish masalalari, bank kuzatuv kengashi vakolatlariga taalluqli boshqa masalalar bo'yicha takliflar kiritadi;

bank bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishi ustidan nazorat qiladi;

bankning joriy faoliyati masalalarini tartibga soladigan ichki hujjatlarni tasdiqlaydi, tasdiqlanishi umumiy yig'ilish va bank kuzatuv kengashi vakolatiga tegishli bo'lgan ichki hujjatlar bundan mustasno;

bankning xodimlar sonini (shtatini) belgilaydi;

ishchi organlarni (qo'mitalarni) tuzadi, ularning vakolatlarini belgilaydi, ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

bank xizmatlari ko'rsatish ofislari, sho'ba jamiyat, vakolatxonalar rahbarlarini tayinlash tartibi to'g'risida qaror qabul qiladi va ularni tayinlash yuzasidan boshqaruv raisi vakolatlarini belgilaydi;

bank kuzatuv kengashi bilan kelishgan holda o'z vakolati doirasida mol-mulk sotib olish va uni begonalashtirish bilan bog'liq bo'lgan yirik bitimlar tuzish, shu jumladan korxonalarga kreditlar (umumiy qiymati qaror qabul qilinayotgan sanada bank sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ortig'ini tashkil qiladigan bitimlar yoki o'zaro bog'liq bir nechta bitimlar va ular muddatini uzaytirish) berish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

har yili bankning kredit rejasini shakllantirishda moliyalashtirish mo'ljallanayotgan investitsiya loyihalarining puxta tanlab olinishini, samaradorligi kompleks baholanishini va ekspertizadan o'tkazilishini ta'minlaydi;

amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining o'zini-o'zi qoplashi, qo'yilgan mablag'larning o'z vaqtida va to'liq qaytarilishi ustidan tizimli monitoring olib boradi hamda natijalari to'g'risida har chorakda bank kuzatuv kengashiga axborot beradi;

bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda, qisqa va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan bankning

strategiyasini ishlab chiqadi hamda uni tasdiqlash uchun bank kuzatuv kengashi orqali aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga kiritadi;

bankning uzoq muddatli strategiyasi asosida ishlab chiqilgan qisqa muddatli (yillik) va o'rta muddatli (5 yilgacha bo'lgan davr uchun) biznes-rejalar ijrosi yuzasidan hisobotni bank kuzatuv kengashiga har chorakda taqdim etadi;

bank kuzatuv kengashiga bank tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyati yuzasidan ularning tasdiqlangan biznes-rejasiga muvofiq, bajarilgan ishlar va erishilgan ko'rsatkichlar to'g'risida hisobot taqdim qiladi;

oshkor etilishi shart bo'lgan axborotlarning bank sayti va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa manbalarda o'zbek, ingliz va rus tillarga tarjimasi bilan birgalikda e'lon qilinishini ta'minlaydi, shuningdek, aksiyadorlar va investorlar, boshqa manfaatdor shaxslar hamda OAV bilan o'rnatilgan tartibda axborot almashinuvini amalga oshiradi;

strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va tavakkalchiliklar to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarligini lozim darajada saqlab turish siyosatini amalga oshiradi;

bankning tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasini, shu jumladan vakolatlarni va javobgarlikni bank xodimlari o'rtasida o'z vakolatlari doirasida taqsimlashni ta'minlaydi;

bank xodimlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

bankning yillik biznes-rejasi bajarilishi, shuningdek bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishiga va kuzatuv kengashiga bajarilgan ishlar, bankka nisbatan qo'llanilgan choralar hamda sanksiyalar to'g'risidagi hisobotni davriy ravishda taqdim etadi;

bank faoliyatining boshqa masalalarini ko'rib chiqadi va hal etadi.

28. Bank boshqaruvi raisi quyidagi vakolatlarga ega:

bank nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarda bank manfaatlarini ifodalash;

bank ustavida yoki boshqa qonunchilikda belgilangan tartibda bank mol-mulki va pul-mablag'larini tasarruf qilish;

bank nomidan shartnomalar va kontraktlar, shu jumladan mehnat shartnomalari (kontraktlar) tuzish;

bank filiallari va boshqa bank xodimlariga ishonchnomalar berish;

boshqa banklarda, shu jumladan chet el banklarida bankning korrespondentlik hisobvaraqlari va boshqa hisobvaraqlarini ochish;

bankdagi ishchi guruhlarini tarkibini shakllantirish va ularni boshqarish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish;

bankka rahbarlik lavozimlarga nomzodlarni tanlash, ularga va boshqa bank xodimlariga malaka talablarini o'rnatish, ularni joy-joyiga qo'yish, rag'batlantirish

yoki intizomiy jazoga tortish, xodimlar shtatlari sonini tasdiqlash va zarur hollarda ularni o'zgartirib berish;

bankning markaziy apparati bo'linmalari rahbarlarini va bankning filiallari (yoki vakolatxonalar) rahbarlarini tayinlash va egallab turgan lavozimidan ozod qilish, bankning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;

o'z vakolatlari doirasida bankning samarali va barqaror ishlashini ta'minlagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va bank kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etish;

bank bo'linmalarining o'zaro samarali faoliyatini ta'minlash;

bankning shartnomaviy majburiyatlari bajarilishini ta'minlash;

bankning ichki moliyaviy va ijtimoiy masalalarini hal etish uchun zarur miqdorlarda foyda olishini ta'minlash;

bankni rivojlantirish dasturlari va biznes rejalari ishlab chiqilishiga rahbarlik qilish, ularni tashkil etish va bajarilishini nazorat qilish;

bank faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

bankda buxgalteriya hisobi va hisobotining to'g'ri tashkil etilishi va ishonchligini ta'minlash, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlarning tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishi, shuningdek aksiyadorlar, kreditorlar va boshqa ma'lumot oluvchilarga bank faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni qonunchilikda belgilangan tartibda taqdim etilishini ta'minlash, yilning har choragida bank kuzatuv kengashiga bankning biznes-rejasi bajarilishi to'g'risida hisobot berib borish;

bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni bank kuzatuv kengashi yoki bank auditori talabiga ko'ra to'siqlarsiz taqdim etilishini tashkil etish;

davlat statistika organlariga tegishli hisobotlarni to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash;

bank siri va tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning shaklanishi, bunday axborotni uchinchi shaxslarga berishni qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etish;

bank siri va tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning bank xodimlari tomonidan saqlanishini ta'minlash;

bank boshqaruvi majlislari o'tkazilishini tashkil etish, bank nomidan hujjatlarni va boshqaruv majlisi bayonnomalarini imzolash;

bankni malakali xodimlar bilan ta'minlash, bank xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlarini ko'rish;

ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishini ta'minlash va bank xodimlarining mehnatini muxofaza qilish;

jamoa shartnomalari va boshqa mehnat munosabatlariga oid bitimlar tuzilishida bank nomidan ish beruvchi sifatida ishtirok etish va ulardagi majburiyatlarni bajarish;

mazkur Nizomga muvofiq bank boshqaruvi tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish;

o'z vakolatlari doirasida ijro etish uchun majburiy bo'lgan hujjatlar qabul qilish va boshqaruv tomonidan berilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

6-bob. Bank boshqaruvining majburiyatlari

29. Bank boshqaruvi:

strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va tavakkalchiliklar to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini amalga oshirishi;

bankning tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasini, shu jumladan vakolatlarni va javobgarlikni bank xodimlari o'rtasida o'z vakolatlari doirasida taqsimlashni ta'minlashi;

bank xodimlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishi;

bankning qabul qilingan yillik biznes-rejasini bajarishi, shuningdek bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishiga va kuzatuv kengashiga bajarilgan ishlar, bankka nisbatan qo'llanilgan choralar hamda sanksiyalar to'g'risidagi hisobotni davriy ravishda taqdim etishi;

bank ustavida hamda banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarishi shart.

7-bob. Bank boshqaruvining ish tartibi



30. Bank boshqaruvining majlislari zarur hollarda, lekin bir oyda kamida bir marta o'tkaziladi. Bank boshqaruvi tomonidan bank kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga hal qilish uchun kiritiladigan masalalar bank boshqaruvining majlisida oldindan muhokama etilishi lozim. Bank boshqaruvi fikri va xulosalarini bank kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishida boshqaruv raisi yoki u tomonidan vakolat berilgan boshqaruv a'zosi axborot beradi va himoya qiladi.

31. Bank boshqaruvining majlisida bayonnoma yuritiladi. Bayonnoma yuritilishi boshqaruv kotibi zimmasiga yuklatiladi.

32. Bank boshqaruvi majlislarini o'tkazishni boshqaruv raisi tashkil etadi, u bank nomidan barcha hujjatlarni hamda bank boshqaruvi majlisi bayonnomalarini imzolaydi, bank boshqaruvi o'z vakolat doirasida qabul qilgan qarorlarga muvofiq bank nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi.

33. Bank boshqaruvi raisi o'z ish o'rnida bo'lmagan vaqtda uning vazifalarini vaqtincha bajarayotgan o'rinbosarlaridan biri bank boshqaruvi majlisini olib boradi.

34. Bank boshqaruvi majlisini o'tkazish uchun kvorum bank boshqaruvi



a'zolarining yarmidan kam bo'lmashligi lozim.

35. Bank boshqaruvi majlisida qarorlar, agar qonunchilikda o'zga hol ko'zda tutilmagan bo'lsa, majlisda mavjud bo'lganlarning ko'pchilik, ya'ni kamida uchdan ikki qismining ovozi bilan qabul qilinadi. Bank boshqaruvi majlisida masalalar hal etilayotganda bank boshqaruvining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

36. Bank boshqaruvi ishchi organi bo'lib bank apparati hisoblanadi.

37. Bank boshqaruvi kotibi vazifasi bank boshqaruv qaroriga asosan bank apparati xodimlaridan biriga yuklatiladi.

38. Boshqaruv kotibi:

boshqaruv qarorlari loyihasini tayyorlaydi, ularning yuritilishi va saqlanishini tashkil etadi;

boshqaruv qarorlaridan amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda va bank ichki me'yoriy hujjatlariga ko'ra ko'chirmalar beradi;

boshqaruv qarorlarini tizimlashtiradi va hisobotini yuritadi.

bank boshqaruvi majlislari bayonlari yuritilishini tashkil etadi.

39. Boshqaruv majlislari bayonlaridan ko'chirmalar:

bank kuzatuv kengashi a'zolari talabiga ko'ra;

boshqa mansabdor shaxslar va auditorlarning talabiga ko'ra, faqat boshqaruv raisining ruxsati bilan;

amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslar va organlarga beriladi.

8-bob. Bank boshqaruvi a'zolarining javobgarligi

40. Bank boshqaruvi a'zosi bitim tuzishdan manfaatdor bo'lgan taqdirda, ushbu bitim yuzasidan qaror qabul qilinguncha o'zining manfaatdorligi to'g'risida xabar bermasa, xabar bermaslik natijasida bankka yetkazilgan zarar uchun bank oldida javobgardir.

41. Bank boshqaruvi a'zolari ularga xizmat mavqei bilan berilgan huquqlardan o'zlari bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning maqsadlari, manfaatlari yo'lida foydalanganligi natijasida bankka yetkazilgan zarar uchun bank oldida javobgardir.

42. Bank boshqaruvi a'zolari bank mablag'lari va mol-mulkini tasarruf qilishdan shaxsiy foyda ko'rish bo'yicha harakatlarga yo'l qo'yganligi uchun javobgardir.

Agar Bank boshqaruvi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida bankka zarar yetkazilgan bo'lsa va bunda boshqaruv raisining yoki boshqaruv a'zolarining yoxud ishonchli boshqaruvchining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, bankning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda bankning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.

43. Bank boshqaruvi a'zolari a'zolik faoliyati bank bilan bog'liq tijorat korxonalarida ishlash huquqiga ega emas, ilmiy-pedagogik faoliyat bundan mustasno.

44. Bank boshqaruvi a'zolari o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bank ustaviga muvofiq bank oldida javobgardir.

45. Bankka zarar keltiruvchi qaror qabul qilingan majlisda qatnashmagan yoki qarshi ovoz bergan bank boshqaruvi a'zolari javobgarlikdan ozod etiladi.

46. Bank boshqaruvi a'zolariga nisbatan ular tomonidan yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar uchun Markaziy bank tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda choralar va sanksiyalar qo'llanilishi mumkin.

9-bob. Yakuniy qoida

47. Bankka yoki bankning nazorati ostidagi yuridik shaxsga aloqador bo'lgan shubhali faoliyat, firibgarlik yoxud suiste'molliklar to'g'risida xabar qilgan bank boshqaruvi a'zosining shaxsi oshkor qilinmasligi ta'minlanadi.

Boshqaruv raisi

Boshqaruv a'zolari:

F.Gafurov

B.Bobojonov

B.Djumayev

A.A. Muratov

K.Ismoiliy

S.Olimjonov

X.Maxmudov

АКЦИЯДОРЛИК ТИЖОРАТ БАНКИ
“ҚИШЛОҚ ҚУРИЛИШ БАНК” АКЦИЯДОРЛАРИНИНГ
НАВБАТДАН ТАШҚАРИ УМУМИЙ ЙИГИЛИШИ

Тошкент ш. А.Навобий кўчаси, 18 А

2023 йил 28 сентябрь, соат 11:00

Жойлаштирилган акциялар сони **15 557 065 844** донани, шундан овоз бериш ҳуқуқига эга акциялар сони **15 548 065 844** донани ташкил қилади.

Умумий йиғилишда қатнашган акциядорларнинг акциялари сони **15 298 325 472** донани ёки жами жойлаштирилган акцияларнинг **98,39** фоизини ташкил қилади.

54-сонли БАЁННОМАН КЎЧИРМА

3. Банкнинг “Банк акциядорлари умумий йиғилиши тўғрисидаги”, “Банк Кузатув кенгаши тўғрисидаги” ва “Банк Бошқаруви тўғрисидаги” Низомларни тасдиқлаш тўғрисида

А.Муратов ва Кузатув кенгаши аъзолари

УМУМИЙ ЙИГИЛИШ ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Ушбу масала юзасидан банк Бошқаруви раиси А.Муратовнинг ахбороти маълумот учун қабул қилинсин.

2. Қуйидагилар:

АТБ “Бизнесни ривожлантириш банки” акциядорлари умумий йиғилиши тўғрисида Низом 3-иловага;

АТБ “Бизнесни ривожлантириш банки” Кузатув кенгаши тўғрисида Низом 4-иловага;

АТБ “Бизнесни ривожлантириш банки” Бошқаруви тўғрисида Низом 5-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

3. Мазкур ички меъёрий ҳужжатлар амалга киритилиши муносабати билан банк акциядорларининг 2020 йил 10 июлдаги навбатдан ташқари 44-сонли Умумий йиғилиши қарори билан тасдиқланган:

Акциядорлик тижорат банки “Қишлоқ қурилиш банк”нинг акциядорлари умумий йиғилиши тўғрисида Низом;

Акциядорлик тижорат банки “Қишлоқ қурилиш банк”нинг Кузатув кенгаши тўғрисида Низом;

Акциядорлик тижорат банки “Қишлоқ қурилиш банк”нинг Бошқаруви тўғрисида Низом бекор қилинсин.

4. Банк Кузатув кенгаши ва Бошқаруви зиммаларига банк фаолиятини юритиш ва уни бошқаришда амалга киритилган Низомлар асосида иш ташкил қилиш вазифаси юклатилсин.

Кун тартибидаги ушбу масала овозга қўйилди:

Тарафдорлар:
15 298 325 472 та овоз

Қаршилар:
йўқ


Бетарафлар:
йўқ

Раислик қилувчи

Котиб

У.М. Охунжонов

А.Ш. Абдуллаев



2023-yil 28-sentyabr

Toshkent sh.

YURIDIK XULOSA

Yuridik departament tomonidan **“ATB “Biznesni rivojlantirish banki” boshqaruvi to‘g‘risida”gi** nizom loyihasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi.

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari hamda bank tizimini tartibga soluvchi boshqa qonun va qonunosti hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, u ijro etuvchi organ bank boshqaruvi maqomini va vakolatlar doirasini, uning ishini, a‘zolarini tayinlash tartibini, javobgarligini belgilaydi.

Ushbu ichki me‘yoriy hujjat loyihasi O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq ekspertizadan o‘tkazilib, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillar aniqlanmadi.

Mazkur ichki me‘yoriy hujjat Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me‘yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom (Nizomning 3-bo‘limi “Tijorat banklarining ichki me‘yoriy hujjatlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, unga o‘zgartirish kiritish va bekor qilish”) talablariga muvofiq holda ishlab chiqilgan.

Ushbu ichki me‘yoriy hujjat loyihasini tasdiqlash “ATB “Qishloq qurilish bank” Aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida”gi Nizomiga muvofiq Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiradi.

**Yuridik departament
boshlig‘i**

 **B. Djumayev**

**“BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI” ATB
ICHKI ME‘YORIY HUJJAT**

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Axborot va kommunikatsiyalar boshqarmasi
Ichki me’yoriy hujjat loyihasining lingvistik ekspertiza
Xulosasi

2023-yil 28-sentyabr

Toshkent shahri

66 -son

1. Ichki me’yoriy hujjat - **Nizom**
loyihasining turi:
2. Ichki me’yoriy hujjat - **“Biznesni rivojlantirish banki” ATB boshqaruvi**
loyihasining nomi: **to’g’risida**
3. Lingvistik ekspertizani - **A. Ravshanov**
o’tkazuvchi:
4. Lingvistik ekspertiza - **2023-yil 28-sentyabr**
o’tkazilgan sana:
5. Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi 662-son qarori bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o’tkazish tartibi to’g’risida”gi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Loyiha matni qisqa va lo‘nda, ta’riflar aniq, imlo, uslubiy, grammatik va orfografiya qoidalariga mos, shuningdek, soha atamalari to’g’ri qo’llanilgan.

Ekspert:



(imzo)

A. Ravshanov

“BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI” ATB
ICHKI ME’YORIY HUJJAT